# II. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2022- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 18 325,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi 115,1 foizni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 112,7 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning 8,9 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 124,3 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 100,2 % ga o'sishi kuzatildi.

**Asosiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, %**



**2022- yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so‘m)**




## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,2 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,006 % ni va o‘sish sur’ati indeksi 8,9 % ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoat

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 17 608,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 96,088 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog‘ning ulushi 0,10 % ni (2021- yil yanvar-dekabr oylarida – 0,13 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 41,1 % (39,5 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 4,2 % (5,7 %) va quyi texnologiyali – 50,7 % (51,3 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %da**




Jami viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 17,7 mlrd. so'mlik (2021- yil yanvar-dekabr oylarida 18,0 mlrd. so'm), o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 7 529,1 mlrd. so'mlik (5 391,0 mlrd. so'm), o'rta-quyi texnologiyali tarmoqda 768,5 mlrd. so'mlik (773,1 mlrd. so'm), quyi texnologiyali tarmoqda 9 293,6 mlrd. so'mlik (7 001,7 mlrd. so'm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan natura ko'rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**
***(2022- yil yanvar-dekabr oylari uchun)***

| *Mahsulot turlari* | *O'lchov birligi* | *2022- yil yanvar-dekabr* | *2021- yil yanvar-dekabr* | *2021- yil yanvar-dekabr iga nisbatan, % da* |
|---|---|---|---|---|
| Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz) | dona | 72 235,0 | 55 068,0 | 131,2 |
| Maxsus yengil avtomobillar | dona | 20 885,0 | 17 158,0 | 121,7 |
| Aroq | ming litr | 101,1 | 40,8 | 2,5 m. |

| *Mahsulot turlari* | *O'lchov birligi* | *2022- yil yanvar-dekabr* | *2021- yil yanvar-dekabr* | *2021- yil yanvar-dekabr iga nisbatan, % da* |
|---|---|---|---|---|
| Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari | ming litr | 8,7 | 5,6 | 155,0 |
| Tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari | ming litr | 567,6 | 368,0 | 154,2 |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni | tonna | 87 678,7 | 86 787,1 | 101,0 |
| Tozalangan o'simlik yog'i | tonna | 10 805,5 | 22 590,8 | 47,8 |
| Xo'jalik sovuni | tonna | 1 994,2 | 4 159,91 | 47,9 |
| Paxta tolasi | tonna | 81 721,4 | 70 321,8 | 116,2 |
| Paxta chigiti | tonna | 143 544,5 | 139 454,5 | 102,9 |
| Shakar | tonna | 270 586,4 | 267 797,8 | 101,0 |

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – 462,7 mln. kVts. ga, yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz) – 17 167 donaga, aroq – 60,3 ming litrga, tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – 199,6 ming litrga, paxta tolasi – 11 399,6 tonnaga, paxta chigiti – 4 090,0 tonnaga ishlab chiqarish ko'paygan.

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 597,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,258 % ni) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hamda bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tizimi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati indeksi 24,3 % ga oshganligi kuzatildi.

**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashda yirik sanoat korxonalari tomonidan natura ko‘rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**
***(2022- yil yanvar-dekabr oylari uchun)***

| | *O‘lchov birligi* | *2022- yil yanvar-dekabr* | *2021- yil yanvar-dekabr* | *2021- yil yanvar-dekabriga nisbatan, % da* |
|---|---|---|---|---|
| Elektroenergiya | mln.kVt/s | 633,1 | 170,4 | 3,7 m. |
| Issiqlik energiyasi | ming Gkall | 115,5 | 118,9 | 97,2 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 118,6 mlrd. so‘mni jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni tashkil etdi.

**Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda yirik sanoat korxonalari tomonidan natura ko‘rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**
***(2022- yil yanvar-dekabr oylari uchun)***

| *Faoliyat turlari* | *O‘lchov birligi* | *2022- yil yanvar-dekabr* | *2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da* |
|---|---|---|---|
| Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar | mlrd.so‘m | 135,9 | 101,3 |
| Oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar | mlrd.so‘m | 6,1 | 109,2 |
| Shahar xo‘jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar | mlrd. so‘m | 20,4 | 83,7 |

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
*(2022- yil yanvar-dekabr oylari uchun)*

| *Iqtisodiy faoliyat turlari* | *2022- yil yanvar-dekabr (mlrd. so‘m)* | *2021- yil yanvar-dekabr (mlrd. so‘m)* |
|---|---|---|
| **Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi jami** | **18 325,8** | **13 658,1** |
| **Tog‘- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash** | **1,2** | **5,8** |
| *ulardan:* | | |
| Tog‘- kon sanoatiga bog‘liq boshqa faoliyat | 1,2 | 5,8 |
| **Qayta ishlash sanoati** | **17 608,9** | **13 183,8** |
| *shundan:* | | |
| Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish | 3 936,2 | 3 200,7 |
| Ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish | 1 101,5 | 295,9 |
| To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish | 3 773,7 | 3 072,3 |
| Kiyim ishlab chiqarish | 100,0 | 95,0 |
| Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish | 19,4 | 8,7 |
| Yog‘och va po‘kak buyumlar, pohol va to‘qish uchun materiallardan buyumlari, ishlab chiqarish | 34,3 | 36,6 |
| Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlarini ishlab chiqarish | 171,9 | 146,0 |
| Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish | 4,6 | 1,8 |
| Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish | 33,2 | 0,3 |
| Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish | 32,7 | 42,1 |
| Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish | 17,4 | 17,6 |
| Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish | 86,3 | 120,0 |
| Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish | 390,7 | 404,9 |
| Metallurgiya sanoati | 56,9 | 39,7 |
| Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish | 175,4 | 192,3 |

| *Iqtisodiy faoliyat turlari* | *2022- yil yanvar-dekabr (mlrd. so‘m)* | *2021- yil yanvar-dekabr (mlrd. so‘m)* |
|---|---|---|
| Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish | 0,3 | 0,4 |
| Elektr uskunalar ishlab chiqarish | 52,6 | 30,0 |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish | 413,2 | 274,1 |
| Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish | 7 030,5 | 5 044,8 |
| Mebel ishlab chiqarish | 50,3 | 53,0 |
| Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish | 101,7 | 91,7 |
| Mashina va uskunalarni ta’mirlash va o‘rnatish | 25,8 | 15,8 |
| **Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash** | **597,0** | **356,8** |
| **Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish** | **118,6** | **111,6** |

Iqtisodiy faoliyat turlaridan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 3 936,2 mlrd. so‘m (2021- yil 3 200,7 mlrd. so‘m), ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 1 101,5 mlrd. so‘m (2021- yil 295,9 mlrd. so‘m), to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 3 773,7 mlrd. so‘m (2021- yil 3 072,3 mlrd. so‘m), neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 33,2 mlrd. so‘m (2021- yil 0,3 mlrd. so‘m), avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 7 030,5 mlrd. so‘m (2021- yil 5 044,8 mlrd. so‘m) o‘tgan 2021- yilga nisbatan oshganligini, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 32,7 mlrd. so‘m (2021- yil 42,1 mlrd. so‘m), rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish 86,3 mlrd. so‘m (2021- yil 120 mlrd. so‘m), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 390,7 mlrd. so‘m (2021- yil 404,9 mlrd. so‘m) kamayganligini ko‘rish mumkin.

## Iste'mol mollari  ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab quvvatlash, kichik biznes subyektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 11 466,1 mlrd. so'mlik iste'mol mollari ishlab chiqarilib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 125,5 foizni tashkil qildi.

**2021-2022- yil yanvar-dekabr oylarida  iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm) va o'sish surati, %**




Iste'mol mollari ishlab chiqarishda oziq-ovqat va alkogol mahsulotlari 4 585,6 mlrd. so'mni va 6 880,6 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 132,2 foiz va 121,3 foizni tashkil qildi. Jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 40,0 foizni va 60,0 foizni tashkil qildi.



**Hududlar bo'yicha sanoat va iste'mol mollari ishlab chiqarish**

***(2022- yil yanvar-dekabr oylari uchun)***

***(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)***

| *Shahar va tumanlar nomi* | *Sanoat mahsulotlari, mlrd. so'mda* | *2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan ishlab chiqarish indeksi %* | *Iste'mol mollari, mlrd. so'm* | *2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da* |
|---|---|---|---|---|
| **Xorazm viloyat bo'yicha** | **18 325,8** | **115,1** | **11 466,1** | **125,5** |
| Urganch sh. | 3 178,1 | 117,5 | 1 762,8 | 154,0 |
| Xiva sh. | 229,4 | 108,3 | 165,6 | 101,7 |
| Bog'ot | 523,0 | 110,1 | 175,5 | 97,0 |
| Gurlan | 488,5 | 104,9 | 200,6 | 106,7 |
| Qo'shko'pir | 393,7 | 101,8 | 96,1 | 100,2 |
| Urganch | 931,4 | 106,1 | 409,3 | 110,7 |
| Hazorasp | 505,3 | 110,8 | 107,1 | 113,4 |
| Tuproqqal'a | 9 458,5 | 114,3 | 7 566,6 | 127,9 |
| Xonqa | 733,8 | 107,9 | 406,8 | 118,4 |
| Xiva | 277,5 | 100,5 | 113,0 | 99,7 |
| Shovot | 668,6 | 104,8 | 169,3 | 96,9 |
| Yangiariq | 459,1 | 115,6 | 159,5 | 140,8 |
| Yangibozor | 478,7 | 123,5 | 134,0 | 55,8 |

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan Tuproqqal'a 14,3 foiz, Urganch sh. 17,5 foiz, Bog'ot 10,1 foiz, Yangiariq 15,6 foiz, Yangibozor 23,5 foizga oshgan. Iste'mol mollari bo'yicha Urganch sh. 54,0 foiz, Yangiariq 40,8 foiz, Tuproqqal'a 27,9 foiz oshganligini, Yangibozor 44,2 foizga, Shovot 3,1 foizga, Bog'ot 3,0 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

**Sanoat ishlab chiqarishda hududlarning ulushi, % da**




Diagrammada ko'rinib turibdiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Tuproqqal'a tumani 51,6 foiz, Urganch shahri 17,3 foiz, Urganch tumani 5,1 foiz, Shovot tumani 3,6 foiz, Xonqa tumani 4,0 foiz, Gurlan tumani 2,7 foiz, Bog'ot tumani 2,9 foiz, Yangibozor tumani 2,6 foiz, Qo'shko'pir tumani 2,1 foiz, Hazorasp tumani 2,8 foizni, Yangiariq tumani 2,5 foiz hamda eng past bo'lgan Xiva tumani 1,5 foiz va Xiva shahri 1,3 foizni tashkil qildi.

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish davlat va nodavlat sektorlarida, foiz hisobida**




Davlat va xususiy biznesning o‘zaro hamkorligi doimo har bir zamonaviy demokratik davlatning diqqat e’tiborida bo‘lgan. Keyingi yillarda butun dunyoda hukumat va biznes hamkorligining kuchayishi tendensiyasi kuzatilmoqda.

Davlat va xususiy sektorning o‘zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta’minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O‘z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq, Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko‘rish mumkin. Tarmoq korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 10 710,1 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Shuning bilan birga davlat sektorida 27,6 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 0,2 % ni tashkil etdi, nodavlat sektorida 18 298,1 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 99,8 % ni tashkil etdi.

**2022- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mollari ishlab chiqarish**

*ming so‘m*

| *Shahar va tumanlar nomi* | *Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ming so‘m* | *Iste’mol mollari ming so‘m* |
|---|---|---|
| **Xorazm viloyati bo‘yicha** | **9 440,6** | **5 906,8** |
| Urganch sh. | 21 427,1 | 11 885,4 |
| Xiva sh. | 2 387,1 | 1 723,1 |
| Bog‘ot | 3 057,7 | 1 025,9 |
| Gurlan | 3 188,6 | 1 309,0 |
| Qo‘shko‘pir | 2 218,2 | 541,2 |
| Urganch | 4 491,9 | 1 973,9 |
| Hazorasp | 2521,4 | 534,6 |
| Tuproqqal’a | 165 222,5 | 132 174,3 |
| Xonqa | 3 797,0 | 2 104,9 |
| Xiva | 1 839,0 | 748,8 |
| Shovot | 3 804,4 | 963,5 |
| Yangiariq | 3 829,0 | 1 330,2 |
| Yangibozor | 5 310,7 | 1 486,0 |

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili, Tuproqqal’a tumanida (165 222,5 ming so‘m), Urganch shahrida (21 427,1 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (11 896,5 ming so‘m) yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Qolgan Qo‘shko‘pir (2 218,2 ming so‘m), Xiva tumani (1 839,0 ming so‘m) va Hazorasp tumanida (2 521,4 ming so‘m) ko‘rsatkich past ekanligini ko‘rish mumkin.

**2022- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mollari ishlab chiqarishining o‘sishi, 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, %da**




## Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida kichik tadbirkorlik subyektlari sanoat ishlab chiqarishda yildan yilga ularning hissasi tobora ortib bormoqda.

Xususan, 2022- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 116,1 %ga va ishlab chiqarish hajmi 2 956,0 mlrd. so‘mga oshgan, o‘z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 16,1 %ni tashkil etmoqda.

**Hududlar bo‘yicha yirik va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %da**
***(2022- yil yanvar-dekabr oylari)***




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (100,0 %), Urganch (51,9 %), Xiva (55,3 %), Bog‘ot (34,6 %), Xonqa (34,9%), Yangiariq (35,2 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichik ulush Tuproqqal’a (2,7 %) tumanida kuzatildi.

## Qo‘shma korxonalarning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi

Hisobot davrida 28 ta qo‘shma korxona tomonidan 2 269,5 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi esa 12,4 % ni tashkil etdi.

**Viloyatda qo‘shma korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %**



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda hududlar bo‘yicha qo‘shma korxonalarning umumiy hajmidagi ulushi, %da**




**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**

Bugungi kunda viloyatda 4 794 ta sanoat korxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 849 tasi (faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 17,7 %) Urganch shahriga, 544 tasi (11,3 %) Urganch tumaniga, 456 tasi (9,5 %) Qo‘shko‘pir tumaniga, 408 tasi (8,5 %) Xonqa tumaniga va 405 tasi (8,4 %) Xiva shahriga to‘gri keladi.

**Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, *birlik***



**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik**

*(2022- yil yanvar-dekabr)*




Viloyatda 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 1187 ta yangi sanoat korxonalari tashkil qilingan bo‘lib, shularning 127 tasi Urganch shahriga, 103 tasi Bog‘ot tumaniga, 129 tasi Qo‘shko‘pir tumaniga, 100 tasi Urganch tumaniga, 86 tasi Xonqa tumaniga, 97 tasi Gurlan tumaniga, 83 tasi Xiva shahriga, 96 tasi Xiva tumaniga, 106 tasi Shovot tumaniga to‘g‘ri keladi.

## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 102 ta loyiha bo‘yicha 652,4 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari**

| | *O‘lchov birligi* | *2021- yil yanvar-dekabr* | *2022- yil yanvar-dekabr* |
|---|---|---|---|
| | | | |
| Loyihalar soni | birlik | 98 | 102 |
| Korxonalar soni | birlik | 78 | 91 |
| Ishlab chiqarish hajmi | mlrd. so‘m | 459,8 | 652,4 |

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari**
***(2022- yil yanvar-dekabr)***

| | *Loyihalar soni, birlikda* | *Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m* | *Eksportga sotilgan mahsulot hajmi, ming AQSh dollari* | *Yangi tashkil qilingan ish o‘rinlari soni, birlikda* |
|---|---|---|---|---|
| **Jami:** | **102** | **652,4** | **8,4** | **338** |
| *shundan;* | | | | |
| Urganch sh. | 22 | 178,3 | 0,4 | 71 |
| Xiva sh. | 3 | 62,8 | 0,2 | 50 |
| Bog‘ot | 5 | 10,7 | - | 20 |
| Gurlan | 11 | 33,3 | 1,3 | 51 |
| Qo‘shko‘pir | 4 | 9,1 | 0,3 | 14 |
| Urganch | 9 | 42,1 | - | 15 |
| Hazorasp | 5 | 1,1 | - | 14 |
| Tuproqqal’a | 15 | 173,2 | 6,2 | 66 |
| Xonqa | 7 | 53,1 | - | 15 |
| Xiva | 7 | 42,3 | - | 12 |
| Shovot | 5 | 40,5 | - | 8 |
| Yangiariq | 3 | 4,3 | - | 1 |
| Yangibozor | 6 | 1,5 | - | 1 |

Shahar va tumanlar bo‘yicha tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, Urganch shahrida 22 ta loyihada 178,3 mlrd so‘mlik, Xiva shahrida 3 ta loyihada 62,9 mlrd so‘mlik, Bog‘ot tumanida 5 ta loyihada 10,7 mlrd so‘mlik, Gurlan tumanida 11 ta loyihada 33,3 mlrd so‘mlik, Qo‘shko‘pir tumanida 4 ta loyihada 9,1 mlrd so‘mlik, Urganch tumanida 9 ta loyihada 42,1 mlrd so‘mlik, Hazorasp tumanida 5 ta loyihada 1,1 mlrd so‘mlik, Tuproqqal’a tumanida 15 ta loyihada 173,2 mlrd so‘mlik, Xonqa tumanida 7 ta loyihada 53,1 mlrd so‘mlik, Xiva tumanida 7 ta loyihada 42,3 mlrd so‘mlik, Shovot tumanida 5 ta loyihada 40,5 mlrd so‘mlik, Yangiariq tumanida 3 ta loyihada 4,3 mlrd so‘mlik va Yangibozor tumanida 6 ta loyihada 1,5 mlrd so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

**Mahalliylashtirish dasturining jami ishlab chiqarish hajmida tumanlarning ulushi, foizda**



## Statistik ko‘rsatkichlarga tushuntirish

**Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi** – korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo‘ljallangan, o‘zining nosanoat bo‘linmalariga va kapital qurilishga mo‘ljallangan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

**Sanoat ishlab chiqarishida o‘zgarish indekslari** – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir;

**Iste’mol mollari –** asosan shaxsiy iste’mol yoki foyda olish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

**Natura ko‘rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi** – boshqa korxonalarga jo‘natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o‘z ichiga oladi, ya’ni yalpi mahsulot;

**Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko‘ra guruhlash** Evrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.

**Mahalliylashtirish darajasi** – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliylashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to‘lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo‘lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi;

**Mahsulot sotish hajmi** – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno);

**Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati** – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda to‘ldiriladi.